



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



VOL. 1, ISSUE 1
The Journal of Academic
Research and Trends in
Educational Sciences

ISSN 2181-2675 www.ijournal.uz

ECONOMIC DEVELOPMENT AND POVERTY REDUCTION THROUGH EMPLOYMENT

Xaydarov Baxrom Xolmuradovich¹

Abduraximov Malikjon Abduvohid ugli²

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

KEYWORDS

intellectual potential, labor market, balance of labor resources, macroeconomic stability, economically active population, labor capacity

ABSTRACT

This thesis contains information about unemployment, the poverty layer, the labor market, and effective economic reforms. In addition, measures to provide employment to the population, systematic work, information of the State Statistics Committee, reforms carried out in our country, and research conducted in our country are also presented.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7421426

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Assistant, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB (baxrom3500@gmail.com)

² Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB (malikjon9606@gmail.com)

AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASH ORQALI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH

KALIT SO'ZLAR:

intellektual salohiyat,
mehnat bozori, mehnat
resurslari balansi,
makroiqtisodiy barqarorlik,
iqtisodiy faol aholi, mehnat
layoqati

ANNOTATSIYA

Ushbu tezsida ishsizlik, kambag'allik qatlami,mehnat bozori,samarali iqtisodiy islohotlar haqidagi ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar,tizimli ishlar,davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari,yurtimizda o'tkazilayotgan islohotlar va yurtimizda o'tkazilgan tadqiqotlar ham keltirilgan.

Shu yillarda yurtimizda aholi turmush tarzini yaxshilash,aholini muhim ish o'rirlari bilan ta'minlash,hamda yetakchi kadrlar tayyorlash masalalariga katta e'tibor berilmoqda.Shu bilan birga,samarali iqtisodiy islohotlar hamda intellektual salohiyat bilan bog'liq bo'lgan sohalardagi bir qator ijobjiy o'zgarishlar natijasida sezilarli yutuqlarga erishilmoqda.Mehnat bozorida yoshlarga katta imkoniyatlar berilayotganligi tufayli,jami aholiga nisbatan ish bilan ta'minlash ulushi yuqori ko'rsatgichlarni ko'rsatmoqda.Chunki yurtimizda yoshlar jami aholining 3/2 qismini tashkil qiladi.Yoshlarga jamiyatda munosib o'rin topishiga ko'maklashish va tashabbus ko'rsatib mehnat qilishini qo'llab-quvvatlash boyicha yurtimizda tizimli ishlar olib borilmoqda.

Mehnat bozoridagi holatni xolisona o'rganib chiqib baholash,mehnatga layoqatli aholi sonini xalqaro standartlarga mos ravishda aniqlash hamda mehnat resurslari balansini ishlab chiqish tartibini shakllantirishda Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari hamda Mehnat vazirligining ish bilan ta'minlash masalalarini o'rganib,natijalardan foydalanish maqsadga muvofiq.Mehnat resurslari balansi ma'lumotiga ko'ra 2015-yilda respublikaning jami mehnat resurslari 18,3 million kishini tashkil etib,shundan 99,4 foizi mehnatga layoqatli aholini,qolgan qismi esa ishlayotgan o'smirlar va pensionerlarni tashkil qiladi.

Yana bundan tashqari alohida ko'rsatib o'tish joizki,mehnat resurslarining 75,3 foiz qismi yoki 13,8 million nafari iqtisodiy faol aholi toifasiga,shundan 13,1 million nafari iqtisodiy faol aholi toifasiga kiradi.

Bundan ko'rindaniki, iqtisodiy faol bo'lgan aholining ish bilan bandlik darajasi 94,8 foizni tashkil etmoqda. Mehnat resurslari tarkibidagi qolgan 4,5 mln nafari iqtisodiy nofaol aholi bo'lib, ular jami mehnat resurslarining 24,7 foiz qismini tashkil qiladi. Yuqorida keltirganimizdek, 2015 yil yakuniga ko'ra aholining ish bilan bandlik darajasi iqtisodiy faol aholiga nisbatan 94,8 foizni, mehnat resurslariga nisbatan esa 71,4 foizni tashkil etdi.

Mamlakatda kichik biznes rivoji uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samarali ishlayotganligi tufayli, aholining ishbilarmonlik qobiliyati kengayishi, yoshlarda tadbirkorlik tashabbusi ortishi kuzatilmoqda. Bu jihatlar o'z navbatida, istiqbolli taklif va tashabbuslarni o'z vaqtida rag'batlantirishga katta yo'l

ochib bermoqda. Natijada, ish bilan band aholining aksariyat qismi aynan kichik biznes sohasida mehnat qilmoqda, tarmoqning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa ortmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojiga keng yo'l ochib berilganligi aholi bandligining oshishi va daromadlari o'sishida muhim omil bo'lish bilan birga, iqtisodiyotni izchil rivojlantiruvchi, jamiyat barqarorligini ta'minlovchi kafolat vositalaridan biriga aylandi.

Bu makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, iqtisodiyot rivojlanishiga, aholining hayot darajasi va sifati izchil o'sishiga mustahkam zamin yaratmoqda. Daromadlar ortib borishi esa, o'z navbatida, oilalarning moddiy ahvolini sifat jihatdan o'zgartiryapti. Bu eng muhim, ta'bir joiz bo'lsa, ustuvor ahamiyatga ega. Bunda sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlar chiqarish imkonini bermoqda.

Respublikamizda vaqtincha ishsizlik mavjudligi sabablaridan biri - ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblikdir. Ya'ni, ish bilan band bo'lмаган aholining katta qismi malakasiz xodimlar va mehnat bozoriga birinchi marta chiqayotgan yoshlarni tashkil etmoqda. Aksincha, iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori malakaga va ish tajribasiga ega bo'lgan kadrlarga talab ortib bormoqda.

Ikkinchidan-ishlab chiqarish kuchlari notejis joylashganligi sababli hududiy tarmoqlarda bandlik turlicha ko'rinishga ega bo'lib, Toshkent shahri va Toshkent, Farg'ona, Navoiy, Samarqand hamda Buxoro viloyatlarida aholining sanoat, qurilish, transport sohalarida bandligi nisbatan yuqori. Qishloq xo'jaligi sohasida esa Surxondaryo, Qashqadaryo, Namangan, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida yuqori deyish mumkin.

Qayd etilgan mulohazalar mamlakatimizda iqtisodiy faol aholining ish bilan bandlik darajasini oshirish lozimligini ko'rsatadi. Buning uchun esa, „Ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo'lмаган aholini hududlar bo'yicha hisoblab chiqish metodikas”ni yanada takomillashtirgan holda, „Mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirishning hisobot va istiqbol balansini ishlab chiqish metodikasi”ni ishlab chiqish, hamda respublika hududlarida uni amaliyotda qo'llanilishini joriy etish lozim.

Mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirishning hisobot va prognoz balanslari quyidagi maqsadlar uchun ishlab chiqiladi:

- aholi bandligini, birinchi navbatda, yoshlarni va mehnatga layoqat yoshiga yetgan va birinchi marotaba mehnat bozoriga kirib kelayotganlar bandligini ta'minlash uchun ish o'rirlari tashkil etish parametrlarini aniqlash;
- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish strategiyasini hisobga olgan holda mehnat bozori istiqbolini aniqlash;
- ta'lim muassasalari tomonidan kadrlar tayyorlash miqdorini aniqlash.

Ushbu metodikada quyidagilar aks ettirilishi lozim:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansining namunaviy tuzilmasi. Istiqbolni belgilashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun mazkur namunaviy tuzilmada ko'rsatkichlar nomi, ularni hisoblash algoritmi, hisobot balansi, bahoda (joriy yil) va

prognoz balansi (kelgusi yil) o'z aksini topishi kerak.

Ikkinchidan, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish uchun ma'lumotlar taqdim etish sxemasi. Ushbu sxemada ma'lumotlar mazmuni (nomi)ni, ma'lumotlarni taqdim etuvchi vazirlik va idora nomini, ma'lumotni taqdim etish muddatini hamda qayerga taqdim etilayotganini aniq ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq.

Shu jumladan yana yurtimizda quyidagi tadbirlar ham amalga oshirilmoqda:

1. Mehnat yarmarkalarini tashkil etilganligi,
2. Aholini ish bilan taminlovchi xususiy konsalting firmalarining tashkil etilganligi,
3. Xususiy sektorlarni tashkil etilganligi,
4. Bandlikka ko'maklashish markazlarining tashkil etilganligi,

5. Barcha ortiqcha hujatlarning kamaytirilishi va offline rejimidan raqamli-online tizimga o'tkazilishi,

6. Argos, MyJob.uz, Ish-mehnat.uz shu kabi platform va saytlarning ishga tushirilishi hozirgi kunda yoshlarni nafaqat yoshlarni butun ishsiz aholi uchun juda katta samara bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xaydarov B., Saitov S. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 634-635.
2. Xaydarov B. X., Saitov S. A. RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI AMALIY AHAMIYATI VA XORIJUY TAJRIBA //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 5. – С. 151-156.
3. Хайдаров Б. ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ //Экономика и образование. – 2021. – №. 4. – С. 288-292.
4. Бахром Х. Х. БИЗНЕСНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ТАРТИБЛАРИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 12. – №. 2. – С. 139-142.
5. Nodira T., Xaydarov B., Zafar Q. THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMPETITION AND MONOPOLY IN THE ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – С. 241-245.
6. Xaydarov B. IMPACT OF INTELLECTUAL PROPERTY PROTECTION ON THE DIGITAL ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 163-174.
7. Ҳосилмуродов И., Султоналиева Г. Тафаккур услубининг фалсафий-методологик таҳлили //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 549-551.
8. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, Xudayarov Rashid Tuychiyevich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOT BIZNESNI REJALASHTIRISH. International Journal of

Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 110–113. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/130>

9. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, & Saitov Sirojiddin Abduvalievich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNNING O'RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 113–116. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/131>

10. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA BUXGALTERIYA VA AUDITNI O'RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 128–131. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/135>

11. Nasirov B. U., Boltaeva M. J. Genesis And Transformation Of The Public Catering System In Uzbekistan During The Soviet Period //Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume. – T. 12. – C. 5834-5841.

12. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA'LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO'LLASH USTUVORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 58–60. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/96>

13. Uchkun S., Dilshod N. PROCESS OF IDENTIFYING THE SIGNIFICANT ACCOUNTS IN THE REVENUE CYCLE //Journal of marketing, business and management. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 32-36.

14. Nodira T., Rashid X. PROBLEMS OF INNOVATION MANAGEMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 155-164.

15. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.

16. Abdusattarovich M. B. CALCULATING ECONOMIC EFFICIENCY IN THE DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 1189-1194.

17. Khakimov O. SOCIAL GOALS OF STUDENTS IN HIGHER EDUCATION //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 55-59.

18. Nosirovich A. N. The Methodology of Preparation of Students of Vocational Schools and Colleges for Technical Creative Activity //PSYCHOLOGY AND EDUCATION. – 2021. – T. 58. – №. 2. – C. 1470-1485.

19. Alimov N., Gulruk F. Dependence of psychological maturity on the strength of family relationships //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – T. 6. – C. 38-41.

20. Nizametdinov A. et al. THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 251-254.
21. Akramovich N. A. et al. RAQAMLI IQTISODIYOTNI O'ZBEKISTONDAGI O'RNI //Conferencea. – 2022. – C. 67-69.
22. Nizametdinov Ali Akramovich. (2022). SUN'IY INTELEKTNI KADRLAR SIYOSATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 251-253. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/171>
23. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta 'lim metodologiyasi rivojlanirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.
24. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA'LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 96–98. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/104>
25. Sirojiddin S., Azizbek A. TRANSITION TO THE MARKET ECONOMY AND ITS CHARACTERISTICS IN UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 255-258.
26. Nodira T., Sirojiddin S., Azizbek Z. SOCIO-ECONOMIC SYSTEMS //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 260-264.
27. Sirojiddin S., Nodira T., Dinora S. CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 265-270.
28. To'ychiyeva N. Elektron Ta 'lim Tizimining Afzalliklari Va Kamchiliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 40-41.
29. Норбеков X., Туйчиева Н. Формирование конкурентных преимуществ компаний //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 589-592.
30. Nodira T., Maxfirat T. FORMATION AND DEVELOPMENT OF PRONUNCIATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN SCHOOL STUDENTS //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – T. 1. – №. 1.
31. Nodira T., Maxfirat T. MODERN METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE PRONUNCIATION TO PRIMARY SCHOOL PUPILS IS BASED ON THE JAPANESE EXPERIENCE //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 205-208.
32. Nodira T. PRIORITIES FOR ORGANIZING ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES IN THE AGRICULTURAL SECTOR //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 192-199.